

ALISHER NAVOIYA ASARLARIDA PAYG‘AMBARLAR OBRAZI

Jo’rayeva Shohnoza
Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti
Filologiya va tillarni o’qitish: o’zbekstili
6-6-uzb-21guruh talabasi

Annotatsiya: Iso Masih hayoti va Alisher Navoiy asarlarida Iso Masih obrazi haqida.”Xazoyin ul-maoniy”da Iso obrazlarini tahlil qilish. Kalit so’zlar:Qur’on,Tavrot,Injil,yahudiyalar,IsoMasih,Maryam,Xazoyin ul-maoniy

Alisher Navoiyning Mukammal asarlar to‘plami yigirma tomlikning uchinchi, to‘rtinchi,beshinchi,oltinchi tomlaridagi ”Xazoyin ul-maoniy”tarkibiga kiruvchi devonlarni kitobxonlarga taqdim qilish uchun bir guruh olimlar izlanishlar olib bordi.Ushbu izlanishlar mahsuli sifatida ”Xazoyin ul-maoniy”ga kirgan devonlarning qayta ko‘rilgan va to‘ldirilgan shaklini filologiya fanlari kandidati F.Q.Sulaymonova rahbarligi ostida filologiya fanlari kandidatlari M.SH.Hamidova,SH.U.Sharipov,L.H.Serikova va ilmiy xodimlar M.Inog’omxo’jayeva,M.Bahodirova,M.Xayrullayevalar amalga oshirdilar.

“G‘aroyib us-sig‘ar“ ushbu debocha bilan boshlanadi:

Shukru sivos ul qodirg‘akim, chun adam osoyishgohidan vujud oroyishi ogohlarig‘a jilva berdi,insonni soyir maxluqotdin nutq sharafi bilan mumtoz qildi.

Rubooya:

Ulkim, chu jahon hilqatin og‘oz etti,

Sun‘i kilkini naqshpardozi etti.

Inson xaylin nutq ila mumtoz etti,

Nutq axlini nazm ila sarafroz etti.

Xaylin-tiriklik,jonli,inson turadigan joy ,qishloq

Sarafroz-baxtiyor,xursand,mag‘rur

Ushbu ruboiy orqali inson nutqini nazm she’riyat orqali bezalishiga,nazm nutq naqshi ekanligiga ishora qilinadi.Kimki,chiroyli nuqt so’zlasa nazm orqali uni baxtiyor etadi.Inson nomli yaratqining naqshi bu uni nutq ekanligini isboti deb ushbu ruboiyga nazar solsak ayni mudao bo’ladi.

Iso yoki Iso Masih-Qu’onda tilga olingan payg‘ambarlardan biri.Islomda Muhammad (s.a.v.)dan oldingi payg‘ambar sifatida alohida e’zozlanadi.Onasining ismi Maryam.Iso-Allohnning o’g’li emas,Xudo ham emas,Iso Allohnning bandasi va bokira qiz Maryamdan mo’jiza bilan tug’ilgan.Alloh unga „Bani Isroil”qavmini hidoyatga boshlash uchun payg‘ambarlik darajasini iroda etadi.

U zotning tug’ilgan yili aniq emas.Eng ishonarli manbalarga ko’ra,Iso alayhissalom taxminan milodning boshlanishidan 4 yil avval hukmronlik qilgan shoh

Avgust zamonida,Vifleem shahrida dunyoga kelgan.Iso a.s.ning tug'ilishi qator samoviy hodisalar bilan bir vaqtga to'g'ri kelganligi tufayli uni Masih va yahudiylar mamlakatining yangi shohi deb hisoblashgan.

Qur'oni karimda shunday oyat keltiriladi.'''Eslang ey Muhammad,Oolloh aytgan edi:''Ey Iso binni Maryam,senga va validangga bergan ne'matimni-seni Ruhul-Qudus(Jabroil)bilan quvvatlantirganimda odamlarga beshikda(go'dakligingda)ham balog'atga yetgan holingdagi kabi so'zlaganiningi,senga Kitob-xat va hikmatilmni,Tavrot va Injilni bildirganimni va mening iznimni-ixtiyorim bilan loydan qush timsolini yasaganiningi,so'ngra unga puflaganingda,Mening iznim-ixtiyorim bilan o'liklarni tiriltirib qabirdan chiqarganiningi eslagin!''Moida surasi,110-oyat.

Iso alayhissalom o'z ta'limotini ko'proq masallar orqali bayon etgan. Uning chuqur, ma'nodor va o'ta mukammal tarzda ifodalangan fikrlari, har bir iborasi, so'zları hammani hayratga solib, maftun etgan. Barcha buyuk zotlar kabi Iso alayhissalomning ham g'animgani bo'lgan. Ana shu g'animgani orasidan o'rin olgan yaqin shogirdining sotqinligi tufayli Iso xalqni g'alayonga da'vat qilganlikda ayblangan.

Amalsiz e'tiqod — o'lim

Iso yahudiylarning oliy mahkamasida turib, o'zini Xudoning O'g'li deb tanitgan. Uni Tangriga qarshi so'zlaganlikda ayblab, o'limga mahkum qilishgan. Keyin uni rimlik hokim Pontiy Pilat oldiga olib borishgan. Garchi u Isoda hech qanday ayb topmagan bo'lsa-da, olomonning talabiga ko'ra, uni o'ldirishga buyruq bergan.Rim askarlari Isoni Go'lgota degan joyga olib borib, ustunga mixlashgan. Kunduzi qo'qqisdan butun yerni zulmat bosgan. Iso o'lishi bilan yer larzaga kelgan. Uning tanasini qoyada o'yilgan qabrga olib borib qo'yishgan. Ertasi kuni esa, ruhoniylar qabr og'zidagi toshga muhr bosib, soqchilarni qo'yishgan.Iso payg'ambar xochga osilgan bo'lsada, shoirlarning e'tibor va e'tirofidan chetda qolgani yo'q. Hattoki Navoiy ham o'z asarlarida ul zotga ishora qiladilar. "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotining birinchi devoni bo'lmish "G'aroyib us-sig'ar" da 19 ta g'azalda,"Navodir ush-shabob"da 6 o'rinda, "Badoyi' ul-vasat"12ta o'rinda , "Favoyid ul-kibar"da 13 o'rinda Iso Masih obrazi bilan bog'liq baytlar keltirilgan."Xazoyin ul-maoniy" kulliyotining birinchi devoni "G'aroyib us sig'ar"devonidagi g'azallaridagi Iso payg'ambar obrazlariga va bizga notanish so'zlar izohiga to'xtalamiz.

Nutqi jon bermak qilur ul la'li xandon birla baxs,

Rost Isodekki qilg'ay obi hayvon birla baxs.

Nutqi-so'zi la'l-qimmatbaho tosh,yor labini la'lga qiyoslamoqda obi hayvon-hayot suvi,jon baxshida qilguvchi suv

La'li xandon bilan baxs qilsa,suhbatlashsa uning suhbatini berishni talab qiladi,Iso jon baxsh qilguvchi bo'lsa hamki, u bilan bermalol bahs qila oladi demoqchi bo'lgan shoir ushbu bayt orqali.

Yana bir baytida Iso dami jonbaxsh dam ekanini aytib o'tgan.Iso damidan,nafasidan o'lganlar tiriladi,jon topib xursand bo'ladi demoqchi.Hamda ushbu bayt orqali Qur'oni karimdag'i oyatga ishora qilingan

Iso damidin o'lgankim,rux topar erdi,

Bilgachki,topar dining, jon topti bo'lub xursand.

Chiqib bu dayrdin Isog'a nevchun hamnafas bo'lmay,

Bixamdillax tajarrud birla himmatdin-qanotim bor.

Dayrdin-o'zga din vakili Bixamdillax-xudoga shukr

Tajarrud-alloqasizlik,chetlanish,hamma narsadan kechish,yolg'izlik

O'zga dindan bo'lgan,g'ayridin Isoga nega hamnafas bo'lmay

Xudoga shukrki hamma narsadan kechsam ham himmatdan qanotim bor degan fikrni anglab olishimiz mumkin.

Damingni asra,ey Isoki,Ranjim dafig'a har kun

G'izo ul oy qilichi zahmining bir qatra qoni bas.

Ranj-mashaqqat,qiynalish,og'riq;kasallik

Daf-qaytarish,rad etish,ketkazish

G'izo-ovqat,oziq,yegulik

Chamanda tozalig'din har quruq shoxe erur Xiziriy

Magarkim andin o'tmish obi hayvonim xirom aylab.

Xizr,Hazrati Xizr,Xizr buva-islom rivotlaridagi shaxs,taqvodor inson.Qur'oni Karimda tilda olinmagan,lekin ulamolar tomonidan Qur'onda "Allohning quli" nomi bilan tilga olingan,boqiylikka erishgan shaxs sifatida talqin etadi.Qur'oni karimning "Kahf surasi"da Xizr haqida gap boradi.Aytishicha,Muso a.s.Allohg'a murojat qiladi,so'ngra o'zidan ham ilmli kishi bor yoki yo'qligini so'raydi.Allohg taollo esa Xizr undanda ilmli ekanini aytadi.Muso Xizr bilan uchrashib, unga hamroh bo'lishini so'raydi.Xizr rozilik berib shartini aytadi.Xizr nima qilsa ham o'zi aytmaguncha so'ramasligini,sabr qilishini uqtiradi.Muso rozi bo'lgach safarga otlanishadi.Yo'lda Xizr tomonidan kemaning teshilishi,bir bolani o'ldirishi,yiqilay deb turgan devorni tuzatishi Musoni hayratga solidi.Xizrn ni aytganiday sabr qilish o'rniga har bir hodisaning sabini so'raydi.Xizr har bir voqeani bayon etgach Muso bilan shu yerda xayrlashadi.Bu voqealorqali Xizrnning o'ziga xoz yetik sifatini ko'rishimiz mumkin.Musoning Xizrdan ta'lim olgani Xizr Musodan Afzal ekanini ko'rsatib turibdi.

Bizga ma'lumki Iso nafasi orqali tiriltirish xususiyatiga ega edi. Baytda mening kasalimga nafasingni sarf qilavermay dampingni asr.Ul oyning,go'zalning qilichi zahmidan,yarasidan bir qatra qon bas menga deb,- mashuq Isoga murojaat qiladi.

Gar habibim qilsa izxori kalom,ey piri dayr,

Isoyi Maryamni ul dam gungi modarzod bil.

Dayr-butxona,Mayxona

Gungi modarzad-tug'ma soqov

Agar menga habibim so'z so'zlasa,ey mayxona piri

Isoning onasi Maryamni tug'ma soqov bil.Ushbu baytda bokira Maryamning taqdiriga ishorani ko'rishimiz mumkin.U g'oyibdan,bokira holatida ham homilador bo'ladi.Oy kuni yetganida qishloqdagilardan uyaladi,hayo qiladi.Shu sababli qurugan darxat kovagida farzandini dunyoga keltiradi shaklidagi rivoyatlar ham mavjud.

Ey labing Iso damidek xasta jong'a choraras,

Vax,necha g'amzang Navoiy qatlin etgay multamas.

Ul muborak ko'nglunga bo'lg'ay muyassar bu xavas,

Lutfini boshtin yana turguzsang,ey Iso nafas

Choraras-biror ishning chorasiga yetuvchi,iloj qiluvchi

G'amzang-noz va dilbar ishva bilan kipriksuzib boqish

Multamas-iltimos,so'rov,so'ralgan

Bu muxammasda nido san'ati qo'llangan bo'lib,mashuqani labini Iso damiday jonga xuzrbaxsh.necha nozing Navoiy qatlin so'raydi.Yorni muborak ko'ngliga xavas qildim

Badoyeul-vasat kulliyotining Alif xarfiningofatlarining
ibtidosi''Badoye''dinning birinchi g'azalidagi quyidagi baytga e'tibor qaratsak.

Zahri firoqingdin qayu oshiqki bo'ldi talxkom

No'shi visolning yetmasa,Iso anga topmas davo

Ushbu baytda yorning visoliga yetishishda ma'shuqning chekkan ozorlariga hattoki Iso ham davo topolmasligini aytib o'tadi.Firoqingda qaysi oshiq mubtalo bo'lsa,sening husni jamolingga yetisha olmasa uning dardiga hattoki Iso ham chora topolmaydi.Uning jonbaxsh dami ham ojiz demochi.Bu misralardagi go'zal yor obrazi orqali shoirning Allohg'a bo'lган muhabbatи ifodalanmoqda.

Dardi xajrimg'a ul ikki la'li xandondur davo

Kim,o'lar Iso damiyu obi hayvondur davo.

Ne davo Iso daminfahm ayla,ne hayvon so'yin,

Hajr jonin olg'anelga vasli jonondur davo.

Mening dardimga ul la'li xandon(yor labini la'l qimmatbaho toshga o'xshatyapti)davo.Kimdir bu dunyoni tark etsa Iso nafasi yoki tiriklik suvi davo bo'lur.Menga Iso dami nefoyda berur.Hajr jonini olganga jonon vasli davo bo'lur-deb nasriy bayon qilishimiz mumkin.Yuqorida keltirilgan baytda nihoyatda betakror Tashbih-o'xshatish san'atidan foydalanilgan.G'ayridindan chiqib, payg'ambarlik darajasiga yetgan Iso Masih nomini keltirish orqali talmih san'ati yuzaga kelgan.''Davo''so'zi qofiyalanuvchi so'zdir.

O'yla ruxafzo labing anfosidin toptim xayot

Kim,gar o'lsam,ko'rmagaymen Iso-yu Maryam yuzin

Yor mexmon bo'lmoq ermish,boring,ey jonu ko'ngul,

Istaramkim ko'rmagay,albatta,nomaxram yuzin.

Ruxafzo-jon baxsh etguvchi,shodlik baxsh etuvchi,jonlantiruvchi
Anfosi-dam,nafas

Tiyra kulbamga kirib,jono,o‘lumdin ber najot,
Zulmat ichra Xizrg‘a ul navkim obi hayot.

Tiyra-qorong‘u,qora
Nay-qamish

Qorong‘u kulbamga kirib,ey jonon,o‘limdan najotkorim bo‘l
Zulmat ichra Xizrg‘a ul qamish obi hayot erur

O’yla jon baxsh etguvchi labing nafasidan topdim xayot

Agar o’lsam iso-yu Maryam yuzini ko’rmayman

Agar yor mehmon qilsa boring boring jonu ko’ngildan
Nomahram yuzini ko’rmasliginggizni istar edim.

Ushbu baytda juft qatordagi so’zlar o’zaro qofiyadosh bo’lib kelgan.Talmih-Iso,Maryam ismlarini ifodalash bilan yuzaga chiqqan.Shoir nido sanatini ifodash uchun ko’ngilga murojaat qilgan.

“Favoyid ul-kibar”da ham Iso payg’ambar obraqi e’tibordan chetda qolib ketmagn.Shoir undan mohirona foydalani tafsiz baytlarning dunyoga kelishiga sababchi bo’ldi.

Ne husnu nutq erur, yo rabki,zohir aylasang andin
Quyoshqa tiyralig’ bolgay,ayon Isog’a abkamliq.
Zamon ahlin qotiqmu deyin yo sustkim,yoqtur
Jafo ichra alarda sustlig’,ahd ichra mahkamliq.

Abkamliq -soqovlik,gunglik.lol bo’lganliq

Yorning husnu nutqi,so’zlagan so’zidan so’zlasang oshkpr etsang,
Quyoshg’a tirkak bo’ladi,Iso lol bo’lganidan saqov bo’lishi ayondir.

Zamonamiz ahli qattiq yki sustmi

Ularda sustkashlik ham jafo ham yo’q lekin ahdiga vafo bor.

Ushbu baytlardan ko’rinib turubdiki,yor shu darajada go’zalki hattoki Iso payg’ambarninghayotbaxsh dami ham ojiz uning oldida. Ma’shuqaning hijroni jon olsa,tarifi jon baxsh qiladi.Abkamliq,mahkamliq so’zlari qofiyadoshlikni yuzaga keltiradi

Bo’lma dersan,nosixo,xusn ahlig’ a xayronu zor,
Mendin o’tkil,ko’ngul otlig’ zori xayronimg’ a ayt.
Va’dasi ummididin bukim Navoiy berdi jon,
Ey sabo,Iso nafasliq axdi yolgonimg’ a ayt.
Nosixo-nasihatgo’y

Vax ne tarsodurur ul dayrdakim,
So'z demas oldida Iso gustox.
Xoling ul hindu erurkim,bo'l mish
Labing ustida shakarxo gustox.

Gustox- adabsiz, andishasiz, tortinmaydigan, tortinmas
Tarso-Xristian, nasroniy
Vax ne nasroniydur mayxonada
So'z demas oldida Iso andishasiz
Holing hinduga ham ayon
Labing ustidagi shakar ham adabsiz

Poya oliv istasang, tajrid et avval ixtiyor
Iso andin aylar ushbu nilgun ayvoni tavf.
Bir Navoiyning buzug' ko'ngliga evrul, rahm etib,
Netti gohi Yusuf etsa ehzonni tavf.

Poya -martaba
Tajrid-ajratish, yakkalash
Tavf-aylanish, ziyorat
Nilgun-ko'k rang, nil rang, ko'kimtir

Labing obi hayotida erur Iso dami muzmar,
Ne tong, bo'lsa o'luk jonbaxsh aning shirin kalomidin.

Muzmar-yashiringan, berkitilgan
Labingda Iso dami yashiringan. U har tong o'liklarga jon baxsh etishga qodir
deydi

Har nafas la'li labing nuqta bila
Iso e'jodzi aylab izhor Nola noqus kebi tortib zor-zor.
Dayr -butxona, mayxona
Noqus-katta qo'ng'iroq

"Qur'oni karimda"ning ma'nolar tarjimasida ham Iso payg'ambar Baqara Surasida aytib o'tadi. Baqara sigir demakdir. Surada Muso alayhissalom qavmi orasida noma'lum shaxs tomonidan bir kishi o'ldirilganda, Alloh taolo bir sigir so'yib, uning bir bo'lagi bilan o'likni ursinlar, deb buyuradi. Shu buyruqni bajarishganda murda tirilib, o'z qotili kimligini aytib beradi. Shu sababli sura sigir nomi bilan atalgan. Bu Qur'onidagi eng yirik sura bo'lib, unda e'tiqod (Islam mafkurasi), ibodat, muomala, axloq, nikoh, taloq va idda kabi masalalar bayoni bilan bir qatorda Muso alayhissalom, Fir'avn va Isroil avlodni o'rtasidagi mojarolar o'z aksini topgan.

Iso ulardan kufrni sezgach, aytdi: "Alloh sari (borishimda) menga yordamchilar kim?" Havoriylar aytdilar: "Biz Alloh (dinining) yordamchilarimiz. Allohga imon keltirdik va Allohga (bo'yin sunuvchi) musulmon ekanimizga guvoh bo'lgin (ey, Iso!)

Ular (yahudiy kofirlari Isoning qatli borasida) makr qildilar. Alloh ham "makr" qildi. Alloh makkorlarning yaxshisidir. Izoh:Allohnning "makri" bu yerda ularning makri muqobiliga beradigan jazosidir. Zero, Allohn ni makkor deb sifatlash joiz bo'lman bo'lur edi.

Alloh aytdi: "Ey, Iso! Men seni vafot ettiruvchi, huzuringa ko'taruvchi, inkor etganlardan seni poklovchi (xalos etuvchi) hamda senga ergashganlarni qiyomat kunigacha kofirlardan yuqori qo'yuvchidirman. So'ngra, Menga qaytursizlar. O'shanda sizlar ixtilof qilgan (kelisha olmagan) narsalar borasida o'rtangizda hakamlik qilurman. Izoh:Bu oyatdagi "vafot ettiruvchi" iborasini turli xil tafsir qilganlar. Binobarin, Iso(a.s.) ni Alloh o'z huzuriga tirigicha ko'targanmi yoki haqiqatan ham vafot ettirib, so'ng ko'targanmi degan savolga tadqiqotchi ulamolarning ba'zilari: "Bu yerdagi vafot so'zi uyqu ma'nosidadir. Uni oldin uxlatib qo'yib, so'ng ko'targan yoki vafot ettirishi osmonga chiqqanlardan keyindir" - desalar, boshqa tafsir sohiblari jonsiz holda ko'tarilganlar deb ta'kidlaydilar. Biz - hanafiylarning aqidamiz bo'yicha, Iso (a. s.) tirik holda ko'tarilganlar, deymiz. Oyatni esa: "Ey, Iso! Men seni o'z ajaling bilan vafot ettiruvchiman, ularning qatli bilan emas", - deb ta'vil qilamiz. Izoh(a): Ushbu oyatda nasroniy dini ham qiyomat kunigacha boqiy qolishiga ishorat bordir.

Albatta, Isoning (otasiz tug'ilish) misoli, Alloh nazdida bamisoli Odam (Ato) kabidirki, uni tuproqdan yaratib, so'ngra unga "Bo'l!" dedi, bas, (u) bo'ldi.

(Bu) Haq (So'z) Rabbingizdandir. Bas, shubha qiluvchilardan bo'lmang!

Sizga kelgan shu (haqqoniy) bilimdan keyin (nasroniylardan) kim Siz bilan (Iso) to'g'risida bahslashmoqchi bo'lsa, (unday kimsalarga) ayting: "Kelinglar, o'g'illarimiz bilan o'g'illaringizni, xotinlarimiz bilan xotinlaringizni, o'zimiz bilan o'zlariningizni chorlab, so'ng (birgalikda) iltijo qilamiz, bas, yolg'onchilarga Alloh la'natini tilaymiz". Izoh:"Madorik" tafsirida aytilishicha, Nijron qabilasining yepiskopi Oqib boshchiligidagi nasroniyalar uchrashuv belgilangan joyga yaqinlashganlarida payg'ambarimiz nabiralari - Hasan, Husan va Fotima qizlari bilan kelayotganini ko'rishadi. Shunda Oqib o'z izdoshlariga: "Ey, nasroniyalar jamoasi! Ortingizga qaytaveringiz! Men biz bilan bahslashish uchun kelayotgan shunday zotlarni ko'rayapmanki, ular agar Allohdan tog'ni ko'chirishni so'rasalar ham ijobot bo'lur", - deb qaytib ketishgan ekan.

Albatta, bu rost qissadir. Allohdan o'zga iloh yo'q. Allohnning O'zingga qudrat va hikmat egasi.

Ibrohim-Qur' onda nomi zikr etilgan payg'ambarlardan biri,o'zidan keyin o'tgan barcha payg'ambarlarning bobokaloni,arablar va yahudiylarning umumiy avlodi. Allohnning chin do'sti,imomi,siddiq va hanif deb ta'riflanadi.Yahudiylar-xristian diniy adabiyotlarida Avraam nomi bilan ma'lum.Bobilda taavallud topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami.Yigirma tomlik.

- 1.Uchinchi tom. Xazoyin ul-maoniy.G'aroyib us-sig'ar.O'zbekiston SSR ''Fan'' nashriyoti.Toshkent-1988
- To'rtinchi tom. Xazoyin ul-maoniy.Navodir ush-shabob.O'zbekiston SSR ''Fan'' nashriyoti Toshkent-1989
- Beshinchi tom. Xazoyin ul-maoniy.Badoe ul-vasat.O'zbekiston SSR ''Fan'' nashriyoti Toshkent-1990
- Oltinchi tom. Xazoyin ul-maoniy.Favoyidul-kibar.O'zbekiston SSR ''Fan'' nashriyoti Toshkent-1990
- 2.Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati.to'rt tomlik.O'zbekiston SSR fanlar akademiyasi.1983.
- 3.Qur'oni karim ma'nolari tarjimasি. Tarjimon: Abdulaziz Mansur.pdf.8-9-10-bet. Ziyoruz.comhttps://n.ziyoruz.com
- 4.Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami.Yigirma tomlik.O'n birinchi tom.Xamsa.Saddi Iskandariy.